

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ALLAYOROV BEKZOD ERKINOVICH

**SURXONDARYODA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TASHKIL
ETILISHI VA FAOLIYATI (1917-1991 YY.)**

07.00.01 – “O‘zbekiston tarixi”

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2024

UDK: 94(575.151) “1917/1991”:351.74

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Allayorov Bekzod Erkinovich

Surxondaryoda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va faoliyati (1917-1991
уу.).....3

Аллаёров Бекзод Эркинович

Организация и деятельность органов внутренних дел в Сурхандарьинской
области (1917-1991 гг.).....23

Allayorov Bekzod Erkinovich

Organization and activity of internal affairs bodies in Surkhandarya (1917-
1991).....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ALLAYOROV BEKZOD ERKINOVICH

**SURXONDARYODA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TASHKIL
ETILISHI VA FAOLIYATI (1917-1991 YY.)**

07.00.01 – “O‘zbekiston tarixi”

**tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1383 bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tersu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Sayfulla Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

G'afforov Shokir Safarovich
tarix fanlari doktori, professor

Polvonov Kozimbek Naimovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:


Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/30.12.2019.Tar.78.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 4 » 05 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol Avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino 4-qavat, Majlislar zali). Tel.: (99876) 223-13-11; e-mail: termizdu@umail.uz.


Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (247-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz shahri, Barkamol Avlod ko'chasi, 43-uy.) Tel/faks: 03762217690

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 24 » 04 kuni tarqatildi.
(2024 yil « 24 » 04 dagi 34 raqamli reestr bayonnomasi).





R.E.Xalikova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari
t.f.d., professor.



H.E.Xolmuminov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, t.f.d., dotsent.



T.R.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotining hozirgi bosqichida qonun ustuvorligini ta'minlash, xalqaro tinchlikni mustahkamlash sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradigan huquqiy vositalarni takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda jahon tajribasidan kelib chiqib, politsiya tizimiga muvaffaqiyatli o'tish, bu ichki ishlar organlari ishining ijobiy yo'nalishlarini o'z vaqtida mustahkamlash va xatolarga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi. Mazkur holat huquqni muhofaza qilish tizimi faoliyatida katta tajriba to'plagan mintaqaviy politsiya idoralarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlaridagi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan huquqni muhofaza qilish organlarini mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashdagi o'rnini, ichki ishlar idoralarining inson huquqlarini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan xizmatlarini yanada takomillashtirishga oid ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu borada davlatning huquqiy boshqaruv tizimida ichki ishlar organlarini takomillashtirish, huquq-tartibot idoralari faoliyatini rivojlantirish, sohaga keng miqyosda innovatsiyalar va fan-texnika yutuqlarini joriy qilish, ularning hududlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashdagi rolini chinakam oshirish, huquq targ'ibot xodimlarining kasbiy mahorati bilan bir qatorda ruhiy va jismoniy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ishlar ustuvorlikka ega.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirildi. "Shu bois, so'nggi besh yilda ichki ishlar tizimini kompleks isloh qilish, uning tarkibiy tuzilmalarini optimallashtirish, quyi bo'g'in bo'linmalari natijadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasini yo'lga qo'yish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolar ongida "Qonun – ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar" degan hayotiy tamoyilni qaror toptirish bo'yicha jiddiy o'zgarishlar joriy etilmoqda"¹. Bu borada sobiq sovet ittifoqi davrida ichki ishlar tizimining shakllanishi va mustahkamlanishi jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, xatolar hamda amalga oshirilgan ishlar asosidagi tarixiy voqelikni Surxondaryo viloyati misolida xolisona tahlil etgan holda viloyatda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va faoliyati tarixini ochib berishga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-son "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017 yil 12 apreldagi PQ-2883-son "Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-

¹ <https://qalampir.uz/news/mirziyeev-iiv-khodimlari-va-fakhriylarini-tabrikلامي-48389>

tadbirlar to'g'risida", 2017 yil 1 maydagi PQ-2940-son "Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3216-son "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tuzishini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiq etilayotgan mavzuga tegishli adabiyotlarni davriy xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

Birinchi, Sovet davrida yaratilgan adabiyotlar;

Ikkinchi, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Birinchi guruh adabiyotlarning bir qismini Sovet hukumatining dastlabki yillarida e'lon qilingan turli maqolalar, risolalar, shuningdek, ma'ruzalar hamda hisobotlar tashkil qilsa², qolgan qismini esa, asosan, soha tarixi yuzasidan yozilgan asarlar³, shuningdek, amalga oshirilgan tadqiqot ishlari⁴ tashkil etadi.

Ikkinchi guruh adabiyotlari mustaqillik yillarida yaratilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar orasida yuridik soha vakillaridan shuningdek, tarixchilar tomonidan amalga

² Пять лет власти Советов. — Москва: Издание ВЦИК, 1922; Ходжаев Ф. Советы в новом этапе (Доклад на расширенном заседании директората научно-исследовательского института советского строительства и права Узбекистана) // Советское строительство и право. № 1, 1932; Кнорин В. О ходе чистки Московской организации ВКП(б). — Москва, 1933 ва бошк.

³ Еропкин М. Краткий очерк развития организационных форм советской милиции (1917-1930 гг.). — Москва, 1957; Тот же. Развитие органов милиции в Советском государстве. — Москва, 1967; Агзамходжаев А., Уразаев З. Развитие советской государственности в Узбекистане. — Москва: 1960; Мухамедов А. Славный путь. — Ашхабад, 1965; Арипов Р., Мильштейн Р. Из истории госбезопасности Узбекистана (1917-1934 гг.). — Ташкент, 1967; Джалилов Т. Верные отчизне. -Ташкент, 1968; Советская милиция: история и современность (1917-1987). — Москва, 1987 ва б.

⁴ Джалилов Т. Создание рабоче-крестьянской милиции в Туркестане и ее деятельность по укреплению Советской власти (1917-1924гг.). Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. — Ташкент: 1964; Тот же. Милиция Узбекистана в системе органов советского социалистического государства и её деятельность перехода к социализму. Автореф. дисс. ... док. юрид. наук. -Ташкент: 1971; Алимов Х. Административная деятельность милиции Узбекской ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). Дисс. ... канд. юрид. наук. — Ташкент, 1972; Абидов Ю. Деятельность Компартии Узбекистана по повышению роли административных органов и общественных организаций в коммунистическом воспитании трудящихся (1959-1965 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. — Ташкент, 1977; Гусак В. Борьба с преступностью в СССР накануне и в годы Великой Отечественной войны 1941-1945 гг. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. — Москва, 1991 ва б.

oshirilgan ayrim tadqiqotlarda⁵, monografiyalarda⁶ va hammualliflik ishlarida⁷ o'rganilayotgan mavzuga doir ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Q.Rajabov, Z.G'ulomov, G.Alimov, N.Taumuratov, A.Ermetov, X.Yunusova, B.Rasulovlarning⁸ tadqiqotlarida misol keltirish mumkin. Ayniqsa, O.Soatov⁹ va S.N.Tursunov¹⁰larning asarlarida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashda o'z hissalarini qo'shgan ichki ishlar organlari xodimlari haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotlarda O'zbekistondagi ichki ishlar organlarining faoliyati to'liq o'rganilmadi. Xususan, sovet davrida yaratilgan asarlarda muammoga yondashuv kommunistik mafkuraning g'oyaviy ta'siri ostida bo'lganligi

⁵ Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992; Бобоев М. Соатов А. Сурхондарё милицияси. — Самарқанд: Суғдиён, 1998; Таумуратов Н. Органы внутренних дел Республики Каракалпакистан в годы независимости: страницы истории МВД РК. — Нукус: Каракалпакистан, 2003; Андижон милицияси: кеча ва бугун. Муаллифлар жамоаси. — Андижон, 2008; Раҳмонов Т. Сирдарё милицияси халқ хизматида. — Тошкент: Muharrir, 2012.

⁶ Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. — Тошкент: Маънавият, 2000; Хасанов Б. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы 1917-начала 50-х годов. — Ташкент: Шарк, 2000; Шамсутдинов Р. Ўзбекистонда советларнинг қулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. -Тошкент: Шарк, 2001; Алимова Д., Голованов А. Узбекистан в 1917–1990 годы: противоборство идей и идеологии. — Ташкент, 2002; Ерметов А. Туркистонда назорат органлари фаолияти (Ишчи-деҳқон милицияси ва Ишчи-деҳқон инспекцияси 1917 – 1924 йилларда). — Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2007; Ишанходжаева З.Р. Репрессивная политика Советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.) — Тошкент: Тафаккур, 2011. Расулов Б. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий катагонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929–1959 йиллар). -Тошкент: Sharq, 2012; Каримов Н. “Катта қирғин” нинг келиб чиқиш сабаблари ва омиллари. — Тошкент: Фан, 2013; Ҳайдаров М. Ўзбекистонда совет давлати бошқарув тизими: шаклланиши, босқичлари ва моҳияти (1917 – 1941 й.). — Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”, 2012; Ражабов Қ. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари (1918 – 1924 й.). — Тошкент: Yangi nashr, 2015; Давлатова Ш. Ўзбекистонда бошқарув структурасининг шаклланиши ва тараққиётида миллий масаланинг тутган ўрни (XX асрнинг 20-йиллари). — Тошкент: Navro'z, 2016 ва б.

⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Тошкент: Шарк, 2000; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. Научный редактор: Р.Я.Раджапова. -Тошкент: Шарк, 2000; Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865 – 1990 й.). Лойиҳа раҳбари ва масъул муҳаррир: Д.Алимова. — Тошкент: Шарк, 2000; Турсунов С.Н. “Унитилмас жасорат”. -Т., 1995. Тошкент, 1995, “Ўзбекистон”. Турсунов С.Н. “Хотира барҳаёт –Қадр мангу” Тошкент., “Фан”. 2010; Турсунов С.Н. «Уруш йилларида Шерободликлар жасорати». — Термиз. “Жайхун”, 1993.

⁸ Раджабов К. Истиклолчилик ҳаракати в Ферганской долине: сущность и основные этапы развития (1918-1924гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. -Тошкент: 1995; Унинг ўзи. Вооруженное движение в Туркестанском крае против советского режима (1918-1924гг.). Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. — Тошкент, 2005; Гулямов З. Проблемы совершенствования деятельности милиции в период становления демократического правового государства. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. — Тошкент, 1995; Алимов Г. Теоретические проблемы совершенствования статуса и деятельности органов государственной власти в Республике Узбекистан. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. -Тошкент, 1997; Таумуратов Н. История милиции Каракалпакистана в период восстановления национальной государственности (1917-1936 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. — Нукус, 1999; Эрметов А. Туркистон АССРда назорат органлари ва уларнинг тоталитар тузум ўрнатилишидаги ўрни (1918-1924 йиллар). Тарих фанлари номзоди...диссертация автореферати. — Тошкент, 2006; Эрметов А.А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925-1991 йй.). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2019.; Юнусова Х. Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века. Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. — Ташкент, 2009; Расулов Б. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий катагонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929-1959 йй.). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2017 ва б.

⁹ Voboyev M., Soatov O. Surxondaryo militsiyasi. – Samarqand: “Sug'diyon”, 1998.

¹⁰ Турсунов С.Н. ва бошқалар Сурхондарё тарих кўзгусида. Тошкент, 2001., Шарк., Турсунов С.Н. Шеробод тарихидан лавҳалар. Термиз, 1993., Турсунов С., Турдиев Т. Денов. –Тошкент: Фан, 2009., Турсунов С., Қобулов Э., Муртозоев Б., Пардаев Б., Умаров И. Термиз тарихи. –Тошкент: Yangi nashr, 2019., Турсунов С.Н. ва бошқалар Шаҳид кетган катагон қурбонлари – хотираси абадий (1920-1938 йиллар). Тошкент. Yosh avlod matbaa. 2023.

uchun bu masalalar o'zining xolis talqinini topmagan. O'zbekistonda mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlarda ham ichki ishlar organlarining tarixi yetarli darajada yoritilmadi.

Masala tahlili shundan darak beradiki, mahalliy va xorij tadqiqotlarida 1925-1991 yillarda O'zbekistonda faoliyat yuritgan ichki ishlar organlarining tarixi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Shuning uchun ham mazkur yo'nalishdagi tadqiqotni amalga oshirish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir. Bu holatlar nazarda tutilib, mazkur mavzu doktorlik dissertatsiyasi sifatida tanlandi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ATD-1 «O'zbekistonning janubiy hududlarida moddiy va ma'naviy madaniyat» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1917–1991 yillarda Surxondaryoda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va faoliyati tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Surxondaryoda sovet hokimiyatining mustahkamlanishi yillaridagi ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va vazifalarini tadqiq etish;

Sovet davrida Surxondaryoda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jarayonida militsiya organlarining faoliyati, soha xodimlarining Ikkinchi jahon urushi yillarida jang maydonlaridagi ishtiroki, qayta qurish yillarida ichki ishlar organlarining faoliyatidagi kamchiliklar, undagi muammo va ziddiyatlarni aniq dalillar asosida ochib berish;

Ichki ishlar organlari xodimlarining jamiyatda tartib-osoyishtalikni mustahkamlash, davlat va xalq mulkini qo'riqlash, jinoyatlarni oldini olish va fosh etish borasidagi faoliyatini tahlil etish;

Afg'onistonda cheklangan qo'shinlari tarkibida o'z baynalmilalchilik burchini ado etgan ichki ishlar boshqarmasining xodimlari faoliyatini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etish;

Surxondaryo viloyati ichki ishlar idoralarida xizmat qilgan xotin-qizlar faoliyati tadqiq etish;

Ilmiy xulosalarga tayangan holda Surxondaryoda faoliyat yuritayotgan ichki ishlar idoralari tizimining rivojlanishiga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini 1917-1991 yillarda Surxondaryoda ichki ishlar organlarining faoliyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti qilib 1917-1991 yillarda Surxondaryoda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi, uning vazifa va vakolatlari hamda militsiya organlarining respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlardagi ishtirokini ilmiy tahlil etish belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy va qiyosiy, muammoli-xronologik, xolislik, tizimli tahlil, og'zaki tarix kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Surxondaryo okrugida militsiya xodimlari rus va rusiyzabon aholi ichidagi harbiylardan tanlab olinib, ularga “aksilinqilobchilardan” himoyalash, sovet hokimiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarini mustahkamlash hamda

chegara hududlarini tashqi kuchlardan himoya qilish, “bosmachilik” va “yot unsur”larga qarshi kurashish kabi tadbirlardagi faol ishtiroki kuch ishlatar tizimlarning dastlabki kunlardan oq hukumat manfaatlariga xizmat qilish uchun tashkil etilganligini ifodalashi dalillangan;

Sovet hukumatining milliy kamsitish siyosati va militsiya organlarining boshqaruv tizimiga milliy xodimlarni jalb etishdagi cheklovlar, sovet tuzumiga qarshi olib borilgan harakatlarni bostirish bilan bog‘liq jarayonlarda mafkuraviy sobit bo‘lmaganlikda gumonlangan soha xodimlarining “millatchilik va milliy manfaatlarini himoya qilganlik” kabi soxta ayblovlar bilan SSSRning uzoq o‘lkalariga surgun qilinishi va qatag‘on qilinishiga olib kelganligi ochib berilgan;

1950-yillardagi mafkuraviy o‘zgarishlar jarayonida IIV va militsiya boshqarmalari qayta tuzilib, viloyatlarda ham ijroqo‘mlarning yagona ichki ishlar boshqarmalari, joylarda militsiya bo‘limlarining tashkil etilishi va ularning ikki tomonlama bo‘ysundirish prinsipining yo‘lga qo‘yilishi Ichki ishlar organlari xodimlariga belgilangan vazifalar barobarida, qo‘shimcha ishlarni ham bajarishi viloyatda tartib-intizomni o‘rnatish va aholi xavfsizligini ta‘minlashga e‘tiborning susayishiga olib kelganligi asoslangan;

boshqa mintaqalardan farqli tarzda viloyat ichki ishlar xodimlarining Afg‘oniston bilan Termiz, Muzrabot, Jarqo‘rg‘on hududlaridagi chegaradosh joylarda aholining osoyishtaligi va tinchligini ta‘minlash borasida qo‘shimcha yuklamalarning amalga oshirilishi ichki ishlar xodimlarining ijtimoiy himoyasiga yetarlicha e‘tibor berilmaganligi sharoitida olib borilganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va og‘zaki tarix materiallari asosida ichki ishlar organlari faoliyati tarixini ochib berishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilgani, katta hajmdagi arxiv hujjatlari, adabiyotlar va esdaliklardan foydalanilgani, ularning aksariyati birlamchi manbalarga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sobiq sovet davrida Surxondaryoda ichki ishlar organlarining faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik usullar hamda ob‘ektivlik tamoyiliga ko‘ra tuzilmaviy-tizimli tahlil asosida yoritilganligi bois ishlab chiqilgan xulosalardan mazkur muammoni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslarini mukammallashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ichki ishlar organlari tarixi bo‘yicha o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalarining talabalari uchun, shu bilan birga, O‘zbekiston tarixidan (sovet davri tarixi) darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratishga, shuningdek umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litseylar, shuningdek, Amur Temur harbiy chegara litseylarida O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda, huquqiy targ‘ibot tadbirlarida, militsiya muzeylarini tashkil etish va materiallar bilan boyitishda, ustoz-shogird uch avlod uchrashuvlarini ma‘lumotlar bilan boyitishda, eng muhimi yosh avlodga, fuqarolarda vatanparvarlik, mardlik, jasurlik,

vatanni himoya qilish g'oyasini yangicha ruhda o'rgatish yuzasidan ma'lumotlarni xolisona boyishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxondaryoda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va faoliyati (1917-1991 yy.) mavzusining tadqiq etilishi bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Surxondaryo okrugini militsiya xodimlari rus va rusiyzabon aholi ichidagi harbiylardan tanlab olinib, ularga "aksilinqilobchilardan" himoyalash, sovet hokimiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarini mustahkamlash hamda chegara hududlarini tashqi kuchlardan himoya qilish, "bosmachilik" va "yot unsur"larga qarshi kurashish kabi tadbirlardagi faol ishtiroki kuch ishlar tizimlarining dastlabki kunlardan oq hukumat manfaatlariga xizmat qilish uchun tashkil etilganligini ifodalashga oid natijalardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasidagi soha tarixiga oid maxsus kurslarni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining 2023-yil 5-dekabrda 38/3-700-son ma'lumotnomasi). Natijalarining qo'llanilishi soha xodimlarining sovet davridagi sohaning shakllanishiga oid qarashlarini rivojlantirishga imkonini bergan.

Sovet hukumatining milliy kamsitish siyosati va militsiya organlarining boshqaruv tizimiga milliy xodimlarni jalb etishdagi cheklovlar, sovet tuzumiga qarshi olib borilgan harakatlarni bostirish bilan bog'liq jarayonlarda mafkuraviy sobit bo'lmaganlikda gumonlangan soha xodimlarining "millatchilik va milliy manfaatlarini himoya qilganlik" kabi soxta ayblovlar bilan SSSRning uzoq o'lkalariga surgun qilinishi va qatag'on qilinishiga olib kelganligi bo'yicha natijalardan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasidagi soha tarixiga oid maxsus kurslar mazmunini boyitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining 2023-yil 5-dekabrda 38/3-700-son ma'lumotnomasi). Natijalarining qo'llanilishi tinglovchilarda vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'ularini yanada yuksaltirishga xizmat qilgan.

1950-yillardagi mafkuraviy o'zgarishlar jarayonida IIV va militsiya boshqarmalari qayta tuzilib, viloyatlarda ham ijroqo'mlarning yagona ichki ishlar boshqarmalari, joylarda militsiya bo'limlarining tashkil etilishi va ularning ikki tomonlama bo'ysundirish prinsipining yo'lga qo'yilishi Ichki ishlar organlari xodimlariga belgilangan vazifalar barobarida, qo'shimcha ishlarni ham bajarishi viloyatda tartib-intizomni o'rnatish va aholi xavfsizligini ta'minlashga e'tiborning susayishiga olib kelganligiga oid natijalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi teleradiokanali" davlat unitar korxonasi tomonidan ko'rsatuvlar ssenariylarini tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 28-noyabrda 06-28-1783-son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning ichki ishlar sohasining shakllanishi tarixiga oid tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Boshqa mintaqalardan farqli tarzda viloyat ichki ishlar xodimlarining Afg'oniston bilan Termiz, Muzrabot, Jarqo'rg'on hududlaridagi chegaradosh joylarda aholining osoyishtaligi va tinchligini ta'minlash borasida qo'shimcha yuklamalarning amalga oshirilishi ichki ishlar xodimlarining ijtimoiy himoyasiga yetarlicha e'tibor berilmaganligi sharoitida olib borilganligi oid natijalardan O'zbekiston milliy

teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi teleradiokanali” davlat unitar korxonasi tomonidan “Tarixiy savol” ko‘rsatuvining ssenariysini shakllantirish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 28-noyabrdagi 06-28-1783-son ma’lumotnomasi). Natijalarning qo‘llanilishi yoshlarda vatanparvarlik, vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini yanada yuksaltirishga hissa qo‘shgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 3 ta xalqaro konferensiya va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola, 3 tasi xorijiy jurnallarda, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Surxondaryoda ichki ishlar organlari tashkil etilishi va dastlabki faoliyati (1925-1940 yillar)**” deb ataladi. Unda Surxondaryoda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, viloyatda ichki ishlar organlarining tashkil etilishi va vazifalari, XX asr 20–30–yillarida respublikada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar jarayonida militsiya organlarining faoliyati tahlil qilinadi.

1917-yilning 25-oktyabrida (7-noyabr) Oktyabr to‘ntarishi natijasida, Rossiyada tarixan yangi turdagi davlat-proletariat diktaturasi vujudga keldi. Uning kechiktirib bo‘lmaydigan asosiy vazifalaridan biri — eski burjuaziya yer egaligiga asoslangan davlat apparatlarini, birinchi navbatda esa, jazo apparatlarini sindirib, o‘rniga yangi tuzum manfaatlarini ko‘zlaydigan yangi idoralar tashkil etish edi.

Shu sababdan 1917-yil 28-oktyabr (10 noyabr) kuni, ya’ni ijtimoiy o‘zgarishdan uch kun keyin sobiq sho‘rolar Hukumatining vakolatiga binoan, sobiq Ichki ishlar xalq komissariati “Ishchi militsiyasi to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qaror yangi turdagi militsiya organlarining tashkil etilganligini tasdiqlovchi dastlabki tarixiy hujjat edi.

Bolsheviklar va ularga ergashgan rus ishchilari 31-oktyabrdan 1-noyabrga o‘tar kechasi (yangi sana bilan 13-14 noyabr) Termizdagi Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo‘mitasi vakillarini qamoqqa oldilar. Shaharning rus aholisi qismida hokimiyat

Preoblitskiy boshchiligidagi Sovetlar qo‘liga o‘tadi. 1917-yil 2-5 dekabrda Termizda ishchi, soldat va dehqonlar sezdi bo‘lib o‘tadi va unda hokimiyat Sovetlar qo‘liga o‘tganligi e‘lon qilinadi¹¹.

Termiz-Pattakesar shahar Soveti 1917-yil 28-noyabrda qizil gvardiya bo‘linmasini tuzish haqida qaror qabul qildi. Bu bo‘linma sovetlarning tayanchiga aylantirildi. 1918-yilning 2-fevralida Termizda Qizil armiya qismlari tashkil etildi. Bir vaqtning o‘zida Favqulodda komissiya organlari va inqilobiy tribunallar tuziladi. Sovetlarning bu jazo organlari o‘zga fikrlovchilarni ta‘qib qilish, erkinlik va xalq hokimiyatchiligini bo‘g‘ishda asosiy qurol bo‘ldi¹².

1919-yilning iyulida Murayev boshchilik qilgan qizil otryad Termizga kirib keldi. Lekin ularning maqsadi yordam berish emas, balki Termizdagi qurol-yarog‘ va askarlarning bir qismini olib ketish edi. Qamal holatida turgan Termiz Soveti bu ishga qarshi chiqdi. O‘rtada sodir bo‘lgan otishma tufayli Termiz Soveti raisi Fedin, a‘zolari Konovalov, Gopper va Chernishevlar o‘ldiriladi. Lekin K.F.Krulikovskiy va S.A.Malinovskiy boshchilik qilgan harbiy garnizoni va rus aholisi Murayevga qarshi chiqishdi. Murayev maqsadiga erisha olmay jo‘nab qoldi¹³.

Buxoroda esa 1920-yil 1-2 sentyabrda sobiq Qizil Armiya qismlari yordamida amirlik ag‘darib tashlandi va o‘sha yilning 6-oktyabrda birinchi umumbuxoro qurultoyi Buxoro xalq Sovetlar Respublikasi tashkil etilganligini e‘lon qildi¹⁴. O‘sha davrda Surxondaryo vohasi ham BXSRS tasarrufida edi.

Surxon vohasida ham Sovet hokimiyatini o‘rnatish choralari ko‘rila boshlandi. Shu munosabat bilan Termiz shahar soveti qayta tashkil qilindi. Unga Chori Berkaliyev rais etib saylandi. Termiz revkomining birinchi raisi esa Yodgor Abdurahmonov bo‘ldi. Termizga Qizil Armiyaning yirik kuchlari joylashtirildi. Bu qo‘shin Surxon vohasidagi sovet hokimiyatining tayanchiga aylantirildi. Sherobod begi To‘xtamishni ag‘darib tashlash maqsadida tashkil etilgan Sherobod inqilobiy qo‘mitasi ham Termizda joylashdi. Sherobodda sovet hokimiyatini o‘rnatish uchun Goncharenko boshchiligidagi maxsus otryad tuziladi. Bu ishda bolsheviklar tomoniga o‘tgan mahalliy aholi vakillari ham yordam berishdi. Ulardan tuzilgan otryadga Yodgor Abdurahimov va Hasan Amirxonovlar yetakchi etib tayinlanadi¹⁵.

1924-yilning 12-iyulida VKP(b) Markaziy qo‘mitasi “O‘rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu qaror o‘sha yilning kuzidayoq amalga oshiriladi. Surxondaryo O‘zbekiston SSR Buxoro viloyatiga okrug sifatida kiritiladi¹⁶.

1924-yilgi 5-umumbuxoro Qurultoyining qaroriga binoan Surxondaryo militsiyasining boshlig‘i vazifasiga Davronbek Hakimbekovich Bobobekov, uning muovini etib Kelim Xo‘jayev tayinlanadilar.

1925-yil 29-yanvarida Surxondaryo okrugi tashkil etilib, uning markazi qilib Sherobod shahri belgilandi.

¹¹ Safarov Sh. Termiz va Termiziylar. –Termiz: Jayxun, 1993. –B. 50.

¹² Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. –Ташкент, 2000. –С. 66-67, 79-80.

¹³ Xolmirzayev A. Termiz tarixiga ilova // «Lenin bayrog‘i» gazetasi, 1988-yil 16-fevral.

¹⁴ O‘zSE. Toshkent, 1972 yil, 2-jild, 528-529-betlar.

¹⁵ Tursunov S. Surxon vohasida sovet rejimining o‘rnatilishi. –B. 15.

¹⁶ Сурхондарё вилояти давлат архиви. 18-фонд, 1-руйхат, 99-иш, 78-варақ.

Mavjud ko'ngilli militsiya otryadlarining bevosita itoat etadigan rahbar idoralari bo'lmaganligi sababli va Xalq Komissarlari Kichik Sovetining 1924-yil 19-maydagi Respublikada ko'ngilli militsiya bo'limlarini 1-oktabrgacha tugatish to'g'risidagi qaroriga hamda okrug ijroiya qo'mitasi ma'muriy bo'limining 1925-yil 18-avgust 7-sonli buyrug'iga binoan, ular ma'muriy xo'jalik masalalari jihatdan okrug militsiya boshqarmasiga bo'ysundiriladi va amalda, o'sha davr hayot taqozosiga ko'ra, Sherobodda okrug xalq militsiyasiga asos solinadi. Jamoat tartibini muhofaza etish va jinoyatchilikka qarshi kurash kam sonli — 193 kishidan iborat militsiya otliq otryadlari va jinoyat qidiruvi xizmati xodimlari zimmasiga tushadi.

1925-yilning 15-iyunida Termizda jinoyat qidiruv bo'limi tashkil etiladi va uning boshlig'i vazifasiga Ivan Glusov tayinlanadi. O'sha yilning oxirida bu bo'lim Sherobodga ko'chirilib, Termiz shahrida Chori Berkaliyev boshchiligida besh kishidan iborat jinoyat qidiruvi bo'linmasi tuziladi. Bu bo'linma xodimlari hammasi bo'lib 2 dona "nagan" bilan qurollangan edi. O'sha paytda Termizda jinoyatlarning ochilishi 50-80 foizni tashkil etgan.

Vohamiz hududining turli jug'rofiy sarhadlardan iboratligi tadqiq etilayotgan davrda militsiya ishidagi asosiy og'irliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biri hisoblanardi. Bir tomoni balandligi 2,5 ming metrgacha Boysun, Ko'hitang, ikkinchi tomonda Sariosiyo rayonida 3-4 ming metrlik tog'liklar bo'lib, ob-havosi haddan tashqari sovuq, boshqa tomonda — Afg'oniston bilan tutash chegara, Tojikiston, Turkmaniston hududlariga tarqalgan sarhadlar. Bularning hammasiga ulgurish o'sha vaqtdagi kam sonli xalq militsiyasining faoliyatini nihoyatda qiyinlashtirgandi. Buning ustiga, 1925-yili ilgari izdan chiqarilgan Samsonova-Termiz temir yo'l uchastkasi tiklandi, Dushanbe, Sherobod va boshqa yo'nalishlardagi otliq pochta yo'llari; paxta tozalash zavodi va elektr stansiyasi quriladi¹⁷. Tabiiyki, buning natijasida vohamizga fuqarolar, ular bilan birgalikda har xil maqsaddagi shaxslarning kelish oqimi ancha ko'paydi. Bu holat ham militsiya idoralarining faoliyatida ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi.

1925-yilning avgustidan boshlab ana shunday murakkab vazifani okrug militsiyasi o'z zimmasiga oladi. Ayni paytda Sherobod, Boysun, Yurchi, Termiz tumanlarida ham militsiya bo'linmalari tashkil topdi. Bu bo'linmalarda 20-30 suvoriy militsionerlar faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, dastavval Termizdagi bo'linmaga Abdulla Sarvatin Maxsudov, Sherobodda Qiyom Xo'jayev, Boysunda Rajabov, Ali Ahmedov, Yurchida G'ulom Sodiqovich Shamgunovlar boshchilik qilishgan. Okrug militsiyasining siyosiy tashkilotchiligi esa Yakov Yegorovich Kochemazov zimmasiga yuklangan, harbiy komissar vazifasida Salim Ildaxanov ishlagan.

1926-yil boshlarida okrug militsiya boshlig'i vazifasida Aminov, uning muovini bo'lib B.A.Mixaylov, o'sha yilning iyun oyida esa boshliq vazifasida Jo'ra Eshmirzayev, uning muovini va jinoyat qidiruv bo'limi faol qismining (активной части) boshlig'i vazifalarida N.Sherbinskiy ishlagan.

Okrug militsiyasi boshlig'i bo'lib ishlagan Davronbek Bobobekov, Aminov, Jo'ra Eshmirzayevlar, ularning muovinklari Kelim Xo'jayev, B.A.Mixaylov hamda jinoyat qidiruvining boshliqlari Abduqodir Rahimboyev, Ivan Gusev, N.Sherbinskiy

¹⁷ Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 18-fond, 1-ro'yxat, 99-ish, 76-bet.

va boshqalar mahalliy yigitlardan saralab yuzlab shogirdlar tayyorladilar. Ularning o'ziga xos ish uslublari, insoniylik fazilatlarini va odamlarda simpatiya uyg'ota olish qobiliyatlari bo'lib, xuddi shu xislatlar ularning eng ishonchli qurollari edi. Ular o'z shogirdlarida halollikni, poklikni, jangovarlik va matonat sirlarini singdira olishgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIK), Respublikada qaror topgan shart-sharoitlarni hisobga olib, 1927-yil 16-mayda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligini (IIXK) tugatib, uning vazifalarini boshqa muassasalar o'rtasida taqsimlash to'g'risida 57-sonli qarorini qabul qildi. Ushbu qarorga binoan, O'zSSR IIXK tugatiladi va uning vazifalari:

- a) Markaziy Ma'muriy boshqarma bo'yicha;
- b) Qamoq joylari bosh boshqarmasi bo'yicha;
- v) Mahalliy xo'jalik bosh boshqarmasi bo'yicha taqsimlanadi¹⁸.

O'sha sanadan e'tiboran, Respublika bo'yicha militsiya faoliyatiga Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Markaziy Ma'muriy boshqarma rahbarlik qila boshladi. Surxondaryoda okrug ijroqo'mi ma'muriy bo'limi, rayonlarda esa rayon ijroqo'mi ma'muriy bo'limlari boshqara boshladi.

1927-yil 1-dekabrda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti barcha xalq komissarlariga, Respublika xo'jalik tashkilotlariga, viloyat, okrug qo'mitalariga va mehnat bo'limlariga Ishchi-dehqon askarlari (IDKA) va Ishchi dehqon floti (IDKF)ning xizmatdan bo'shagan ma'muriy boshliq tarkiblarini xalq xo'jaligining hamma sohalarida ish bilan ta'minlash to'g'risida farmoyish yuboradi. Shu mazmundagi ko'rsatma Surxondaryo Ijroiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Hamroxojayev tomonidan ham barcha rayijroqo'mlarga yuborilib, unda har bir davlat tashkiloti, xo'jalik korxonalarida o'z shtatining 3 foizi miqdorida ish o'rinlarini askarlar uchun bron sifatida ajratilishi topshirilgan edi. Shu sababli militsiya idoralarida ham, yuqorida ham qayd etilganidek, o'z saflarini layoqatli xodimlar hisobiga to'ldirish uchun armiyadan bo'shagan askarlar ishga qabul qilindi.

1930-yili okrug militsiyasining boshlig'i Chori Berkaliyev tomonidan rayonlar bo'yicha militsiya shtatlari quyidagicha tasdiqlangan:

- Sariosiyo rayon ma'muriy bo'limi bo'yicha jami shahodatlangan shaxsiy tarkib — 15 kishi hisobida tasdiqlangan. Ularning yoshlari 21 dan — 31 gacha, ish stajlari 1 yildan 8 yilgacha bo'lgan¹⁹.

- Jarqo'rg'on rayoni bo'yicha 15 kishi, hammalari ham partiyasiz, faqat militsiya boshlig'i firqa a'zosi bo'lgan²⁰.

- Sherobod rayoni bo'yicha 18 kishi. Ilgari Denov rayonida militsiya boshlig'i bo'lib ishlagan Esonqulov o'sha yili Sherobod rayoniga militsiya boshlig'i lavozimiga o'tkazilgan²¹.

- Denov rayoni militsiya bo'limining shtati 19 kishidan iborat bo'lib, militsiya boshlig'i lavozimiga Zoirov tayinlangan²².

¹⁸ Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 18-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 13-14-betlar.

¹⁹ Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 76-fond, 1-ro'yxat, 603-ish, 71-varaq.

²⁰ Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 18-fond, 1-ro'yxat, 471-ish, 390-varaq.

²¹ Sherobod tuman davlat arxivi. 47-fond, 1-ro'yxat, 371-ish, 109-varaq.

²² Denov tuman davlat arxivi. 9-fond, 1-ro'yxat, 102-ish, 42-varaq.

- Boysun rayoni militsiya bo'limining shaxsiy tarkibi esa 20 kishidan iborat bo'lgan²³.

- O'sha, 1930-yili Surxondaryo okrug ma'muriy bo'limining xodimlari soni 23 kishi bo'lgan.

1931-yilning 25-mayida Butunittifoq ishchi-dehqonlar militsiyasining birinchi Nizomi tasdiqlandi. Shu asosda militsiya organining mamlakat miqyosida umumiy faoliyati va prinsiplari barpo etildi. Shu sanadan boshlab militsiya mahalliy sovetlar qaramog'idan chiqarilib, Butunittifoq byudjeti hisobidan ta'minlashga o'tkazildi. Bu esa ularni pul va kiyim-kechak bilan ta'minlashda qulayliklarga ega qildi²⁴.

1932-yilning 26-aprelida militsiyaga ko'maklashuv jamiyat (osodmil)lari qayta tuzildi va militsiyaga ko'maklashuvchi brigadalar (brigadmil-BSM) tashkil bo'ldi.

Brigadmillar (BSM) bevosita militsiya idoralari tashabbusi bilan tuzilib, ularning boshchiligida ishlaydigan bo'ldi.

1932-yilning dekabriga kelib esa BDSB (OGPU) huzurida Ishchi-dehqonlar militsiyasining bosh boshqarmasi (IDMBB — GURKM pri OGPU SSSR) tuzildi. Bu organ sobiq Ittifoq miqyosida militsiya faoliyatiga rahbarlik qila boshladi. Bu tadbir militsiya va jinoyat qidiruv organlari operativ ishlari darajasini yaxshilashga xizmat qildi²⁵.

1936-yilning mart oyida militsiya tarkibida DAN xizmati tashkil etildi va o'sha yilning 3 iyulida davlat avtomobil nazoratining Nizomi tasdiqlanib, amalda tatbiq etildi. O'sha davrda davlat mulkini o'zlashtiruvchi va chayqovchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarga qarshi kurashish uchun SMTTQKB xizmati tuzildi. Ayrim shahar, rayon militsiya bo'limlarida va bo'linmalarida bu vazifani jinoyat qidiruvi xizmati bajarar edi²⁶.

1936-yili bevosita jinoyatchilikka qarshi kurashga, jamoat tartibini muhofaza qilishga aloqasi bo'lmagan tashkilotlar, ya'ni o'rmon xo'jaligi, tarozi va o'lchov asboblari sozlash va nazorat qilish hamda boshqalar IIXK tasarrufidan olindi. Militsiya organlarini boshqarish markazlashtirildi. Sobiq Ittifoq miqyosida ittifoq-respublika IIXK, respublikalarda respublika IIXK, o'lka, viloyat va okruglarda ichki ishlar boshqarmalari bo'lib, ular faqatgina Ichki ishlar xalq komissarligiga bo'ysunar edi, xolos²⁷.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Sovet davlati tomonidan jamiyatda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jarayonida bevosita ishtirok etgan ichki ishlar idoralari yuklatilgan vazifalar doimiy ravishda o'zgarib turdi.

Xullas, XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmida sovet jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalarida olib borilgan har qanday o'zgarishlar o'ziga xos usul va vositalar orqali (ixtiyoriy, majburiy va b.) o'tkazilib, bu jarayonda davlat tashkilotlari, xususan, nazorat va jazo organlarining ham bevosita ishtiroki kuzatildi. O'zbekistonda jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosatining jadallashtirilishi jarayonida ichki ishlar organlariga qo'shimcha vazifalar yuklatildi.

²³ Sherobod tuman davlat arxivi. 47-fond, 1-ro'yxat, 371-ish, 110-varaq.

²⁴ Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 33-ish, 30-varaq.

²⁵ Boboyev M., Soatov O. Surxondaryo militsiyasi. – Samarqand: “Sug'diyon”, 1998. – B 171.

²⁶ Boboyev M., Soatov O. Surxondaryo militsiyasi. – Samarqand: “Sug'diyon”, 1998. – B 188.

²⁷ Sovet militsiyasi: 1917-1987 yillar. Moskva, “Yuridik adabiyotlar”, 1997-yil, 81-88 betlar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Surxondaryoda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida ichki ishlar organlarining roli (1941-1959 yillar)”** deb ataladi. Unda Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston ichki ishlar idoralarining faoliyati va militsiya xodimlarining jang maydonlaridagi ishtiroki hamda Urushdan keyingi yillarda jamiyatda amalga oshirilgan o‘zgarishlar jarayonida Surxondaryoda ichki ishlar organlarining tarixi tahlil qilinadi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangandan so‘ng, oradan sakkiz kun o‘tgach, 1941-yil 30-iyun kuni sobiq SSSR Oliy Soveti Prezidiumi, VKP(b) Markaziy komiteti, SSSR Xalq Komissarlari Soveti Davlat Mudofaa Komitetini tuzdi. Davlat Mudofaa Komiteti o‘z qo‘lida davlatning butun hukmronligini markazlashtirdi. Endilikda barcha fuqarolar, partiya, sovet, komsomol, harbiy organlar DMK ning farmoyishini so‘zsiz bajarishlari shart edi²⁸.

Urush boshlangan ilk oylarda (1941-yil iyun-avgust) ichki ishlar idoralaridan ittifoq miqyosida shaxsiy tarkibning o‘rtacha 25 % xodimi janglarga ketgan bo‘lsa²⁹, O‘zbekiston SSR IIKXning buyrug‘i asosida respublika bo‘yicha rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xodimlardan 57 nafari qizil armiya saflariga yuborildi³⁰. Ulardan tashqari Toshkent militsiya maktabi tinglovchilarining 50%, Samarqand militsiya organlari xodimlaridan 149 kishi, Toshkent Temir yo‘li militsiyasi bo‘limining 204 nafar xodimlari o‘zbek milliy diviziyasi, shuningdek, general Panfilov diviziyasi safida jangga kirdilar³¹.

Ikkinchi jahon urushi davrida bolalar qarovsizligi oshishiga yana bir sabablardan biri bu bolalar muassasalaridan bolalar qochishi ko‘payishi ham bo‘lgan. 1945-yil SSSR bo‘yicha transport militsiyasining o‘zi bolalar uyidan 28 861 nafar, uchilishilardan 17 871 nafar qochoqlarni qo‘lga olgan³².

1942-yil 23-yanvarda SSSR XKS “Ota-onasiz qolgan bolalarni joylashtirish to‘g‘risida”gi 75-son qarori qabul qilingan. 1941-yil militsiya 19 126, 1942-yil 35 219, 1943-yil 1 kvartali 13 548 qarovsiz bola qo‘lga olgan³³. Masalan, Surxondaryo viloyati militsiya xodimlari ham bunday tadbirlarda faol ishtirok etib, 1944-yil va 1945-yilning birinchi choragida 1422 nafar qarovsiz qolgan bolalarni o‘z uylari va boshqa tegishli tarbiya maskanlariga joylashtirgan edi³⁴.

Ichki ishlar organlari faoliyati sabab mazkur davr bolalar qarovsizligini bartaraf etishda bir qancha muvaffaqiyatli choralar amalga oshirilgan. Bolalar jinoyatchiligi oshishi ular faoliyatisiz bundan ancha yirik raqamlarni namoyon etgan bo‘lar edi.

Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alaba jahonshumul tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, butun dunyodagi tinchliksevar kuchlar bu g‘alabada o‘zlarining munosib hissasini qo‘shdilar. Bu g‘alaba millionlab kishilarning to‘kilgan qoni evaziga, front ortini mustahkamlash borasida olib borgan kurashlari natijasida erishildi.

²⁸ Sovet militsiyasi: 1917-1987 yillar. Moskva, “Yuridik adabiyotlar”, 1987-yil, 159-160-betlar.

²⁹ Емелин С.М. Организационно-правовые основы работы по укреплению дисциплины среди личного состава внутренних дел в годы Великой Отечественной войны (1941-1945). // История государства и права. 2015, № 9. — С.16.

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi muzeyi ekspozitsiyasidan.

³¹ Xalq xizmatida 75 yil. Mas’ul muharrir G‘.Rahimov. — Toshkent: O‘zbekiston, 1992. — B.54.

³² Гусак А.В. Милиция в системе органов по борьбе с детской беспризорностью и безнадзорностью в период Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.). // Пенитенциарная наука. № 9., 2009. – С. 82.

³³ ЎзМА, Р.837-фонд, 32-рўйхат, 3691- иш, 44-варақ.

³⁴ Boboyev M. Soatov A. Surxondaryo militsiyasi. — Samarqand; Sug‘diyov, 1998. — B. 70.

Jumladan, g'alabada o'zbekistonliklarning alohida xizmati va jasorati katta tahsinga sazovordir, biroq, shuni alohida qayd etish zarurki, ana shu og'ir musibatli janglarda mardlarcha jang qilgan, front orqasini mustahkamlashda munosib hissa qo'shgan insonlarning ko'pchiligi mustabid tuzumning changaliga tushib, tuhmat, zug'umlarga uchrab, og'ir qismatni, ayanchli taqdirni o'z boshlaridan kechirdilar. Ular taqdirlanish hurmat va rahmat o'rniga og'ir qiynoqlarga solinib, qamoqxonalarga tashlandi, o'zga yurtlarga Saxalin, Kamchatka va Sibirning izg'irin sovuq o'rmonlariga, tog'-kon shaxtalariga bir umr qamoq jazosiga tortildi.

Militsiya starshinasi Nabijon Akbarov 1915-(1906)yil 15-yanvarda Namangan viloyatining Chust rayonidagi Sh.Bayman qishloq Sovetida tug'ilgan, millati o'zbek. Nabijon aka ichki ishlar idoralaridagi mehnat faoliyatini 1937-yil 15 avgustdan boshlagan. 1942-1945 yillarda 42-o'qchi diviziyaning 53-o'qchi polkida o'qchi sifatida Ikkinchi jahon urushi janglarida qatnashgan. Urushdan qaytgach, u yana militsiya idoralarida xizmatni davom ettirdi. Nabijon aka butun xizmati davrida Denov rayon va shahar ichki ishlar bo'limlarida jamoat tartibini saqlash-xizmatining militsioneri vazifasida faoliyat ko'rsatdi. Uning xizmatlari hukumatimizning 22 ta orden va medallar hamda "Militsiya a'lochisi" nishoni, IIB rahbariyatining qator faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan³⁵.

Partiya va sovet hukumati urushdan keyingi davrda iqtisodiy qurilishning umumiy strategiyasini SSSR Oliy Soveti 1946-yil 18-martda qabul qilgan va tasdiqlagan "SSSR Xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishning 1946-1950 yillarga mo'ljallangan besh yillik rejasi to'g'risidagi qonunda bayon qilib bergan edi³⁶.

Urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligining barcha sohalarida amalga oshirilgan o'zgarishlar jarayonida ichki ishlar organlarining tarkibiy tuzilishi, strukturasi va faoliyatiga tegishli bir qator huquqiy- normativ hujjatlar ham qabul qilindi. 1946-yil 15-martda SSSR Oliy Soveti tomonidan "SSSR Xalq Komissarlar Sovetini Ministrlar Soveti deb o'zgartirish haqida Qonun" qabul qilinib, unga asosan Ichki ishlar xalq komissarligining nomi Ichki ishlar ministrligi deb o'zgartirildi³⁷.

